

**XORAZM VILOYATI TUPROQ - IQLIM SHAROITIDA RASTOROPSHA
SILYBUM MARIANUM (L. GAERTN.) NAVLARINING SUV SAQLASH
QOBILIYATI**

Annamuratova D.R.

b.f.n., dotsent, Urganch davlat universiteti, Urganch.

Bobayeva X. I.

talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch.

Rahimova Sh. J.

talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch.

Ma'lumki, dorivor o'simliklarni qishloq xo'jaligida madaniy o'simliklar qatoriga kiritish – o'simliklarning tabiiy genetik resurslarini muhofaza qilish va saqlab qolish, shuningdek, yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklar bilan qiyoslaganda yuqori va sifatli hosil olish va xom ashyo zahirasi tayyorlash tushuniladi. Lekin ayrim dorivor o'simliklarning ekin maydonlarini kengaytirish va yetishtirish jarayonida bir qator qiyinchiliklarga, jumladan, dorivor o'simliklar hosilining pastligi sababli urug'larining yetishmasligi, dorivor o'simlik biologik xususiyatlarining cheklanganligi, gullash, hosil tugush va pishib yetilish davrining cho'ziluvchanligi kabi muammolar uchrab turadi. Ana shunday dorivor o'simlik turlarining birlamchi urug'lik tizimini takomillashtirish va ko'paytirish dolzarb masaladir [1,2].

Suv almashinuvi xususiyatlari gaz almashinuvi kabi o'simliklar hayotida muhim o'rin tutadi. O'simliklardagi deyarli barcha fiziologik va biokimyoviy jarayonlar suv ishtirokida sodir bo'ladi. Suv almashinuv xususiyatlarini tasvirlovchi asosiy ko'rsatkichlarga o'simlik barglaridagi transpiratsiya jadalligi, suv tanqisligi hamda suv saqlash qobiliyati kiradi. Shuning uchun ham bu ko'rsatkichning qiymatiga qarab, o'simliklarning qurg'oqchilik va sho'rlikka chidamliligini aniqlashda keng foydalanish mumkin [3].

Tajribalarda rastoropshaning Panatseya, Debyut va Samaryanka navlarida vegetatsiya jarayonining to'pgul hosil qilish, shonalash, gullash va hosil tugish fazalarida suv saqlash qobiliyati o'rganildi.

Bizning tadqiqotlarimizda rastaropsha navlari barglarining suv saqlash qobiliyati o'rganilganda bir muncha farqlar kuzatildi. Jumladan, rastoropsha navlari barglarida suv saqlash qobiliyati kunlik o'rtacha qiymati mavsum davomida 64,7 – 42,8% atrofida o'zgarib turishi aniqlandi. Rastoropsha vegetatsiyasining boshlarida, ya'ni to'pgul hosil bo'lish fazasida Panatseya navida bir kunlik o'rtacha qiymat 51,1% ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Debyut navida 50,0% ga ega bo'ldi, huddi shuningdek, Samaryanka navida 53,8% ga ega ekanligi aniqlandi. Bu fazada o'rganilgan rastoropsha navlarining jami suv saqlash

qobiliyati bo'yicha Debyut (53,2%) navi ustunlik qildi Suv saqlash qobiliyati bo'yicha eng past ko'rsatkich rastoropshaning Samaryanka (36,2%) navida kuzatildi (1-jadval).

Rastoropsha o'simligi vegetatsiyasining o'rtalariga kelib, ya'ni shonalash fazasida Panatseya navi bo'yicha bir kunlik suv saqlash qobiliyatining o'rtacha qiymati 51,7% ni tashkil qilgan bo'lsa, Debyut navida 46,1% ga ega bo'ldi. Shuningdek, Samaryanka navida 55,2% ga ega ekanligi aniqlandi.

Shonalash fazasida ham rastoropsha navlarining jami suv saqlash qobiliyati eng yuqori qo'rsatkich Debyut – 50,3% navida kuzatildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha eng past qiymat rastoropshaning Samaryanka navida – 29,9% ekanligi aniqlandi. Rastoropshaning Panatseya navining suv saqlash qobiliyati esa bu fazada oraliq o'rinni egalladi – 35,3%.

O'rganilayotgan rastoropsha navlarining o'rtacha bir kunlik suv saqlash qobiliyati gullash fazasida mos ravishda 52,5%, 42,8% va 55,8% ekanligi kuzatildi. Bu fazada o'rganilgan rastoropsha navlarining jami suv saqlash qobiliyati bo'yicha Debyut (51,0%) navi ustunlik qildi. Suv saqlash qobiliyati bo'yicha eng past ko'rsatkich rastoropshaning Samaryanka (26,6%) navida kuzatildi.

Rastoropsha vegetatsiyasining oxirlarida – hosil tugish fazasida Panatseya navida kunlik suv saqlash qobiliyatining o'rtacha qiymati 63,0% ni tashkil etganligi kuzatilgan bo'lsa, Debyut navida ushbu ko'rsatkich 59,1% ga ega bo'ldi. Huddi shuningdek, Samaryanka navida bu qiymat 64,7% ga ega ekanligi aniqlandi.

Hosil tugish fazasida ham rastoropsha navlarining jami suv saqlash qobiliyati bo'yicha eng yuqori qo'rsatkich Debyut – 24,3% navida kuzatildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha eng past qiymat rastoropshaning Panatseya (21,1%) hamda Samaryanka (21,6%) navlarida kuzatilganligi aniqlandi.

1-jadval. Rastoropsha navlarida barglarining suv saqlash qobiliyati (umumiy suv miqdoriga nisbatan % hisobida)

Rastoropsha navlari	Suv miqdori					
	1 soatdan keyin	2 soatdan keyin	4 soatdan keyin	6 soatdan keyin	O'rtacha	Jami suv saqlash
To'pgul hosil bo'lish fazasi						
Panatseya	76,4	54,7	42,3	34,1	51,1	40,3
Debyut	81,6	53,8	36,4	28,4	50,0	53,2
Samaryanka	74,3	56,4	46,3	38,1	53,8	36,2
Shonalash fazasi						
Panatseya	71,4	55,4	44,0	36,1	51,7	35,3
Debyut	76,4	49,7	32,5	26,1	46,1	50,3
Samaryanka	72,6	58,0	47,7	42,7	55,2	29,9

Gullash fazasi						
Panatseya	68,2	56,9	46,2	38,7	52,5	29,5
Debyut	73,2	46,7	29,1	22,2	42,8	51,0
Samaryanka	70,0	60,1	49,7	43,4	55,8	26,6
Hosil tugish fazasi						
Panatseya	72,9	67,8	59,7	51,8	63,0	21,1
Debyut	71,5	63,1	54,7	47,2	59,1	24,3
Samaryanka	74,1	69,4	62,7	52,5	64,7	21,6

Vegetatsiyaning barcha bosqichlarida ham rastoropsha navlarining jami suv saqlash qobiliyati bo'yicha eng yuqori qo'rsatkich Debyut navida kuzatildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha eng past qiymat rastoropshaning Panatseya navida kuzatilganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Азизова Н.А. Водообмен и солеустойчивость сортов хлопчатника в условиях почвенной засоления и засухи// М.: «Международный Образовательный Центр», 2016. №29-1. С.6-7.
2. Доспехов В.А. Методика полевого опыта// - 5-е изд. переработ. и доп. - М.: Колос, 1985. С.–415.
3. Рўзметова З, Аннамуратова Д.Р ва бошқалар. Хоразм вилояти тупроқ-иқлим шароитида расторопша *silybum marianum* (l) gaertn.) навларининг транспирация жадаллиги. Ўзбекистон миллий университети хабарлари, 2022, [3/1].